Nosir Muhammad (1946-2017)



# Nosir Muhammad (1946-2017)

Nosir Muhammad (Nasriddin Muhammadiyev) 1946 yilning 2 dekabrida Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ qo‘rg‘onida tug‘ilgan. 1968 yili Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgan.

“Toshkent oqshomi” gazetasida kichik adabiy xodim, bo‘lim mudiri, 1976-79 yillari Eronda tarjimon, “Yoshlik” jurnalida mas’ul kotib (1985-1993), O‘zbekiston Milliy axborot agentligining xalqaro axborotlar tahririyati bosh muharriri (1993), “Jahon” axborot agentligida (1994), O‘zbekistonning Turkiyadagi elchixonasida Matbuot kotibi (1996-99), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatining yetakchi konsultanti (1999-2005) bo‘lib ishlagan. 2005 yildan buyon Respublika baynalmilal madaniyat markazi direktori.

Nosir Muhammad O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi (1972) va Yozuvchilar uyushmasi (1989) a’zosi, 20 ga yaqin she’riy va ilmiy-ommabop kitoblar muallifi.

2017 yil 5 iyul kuni Toshkent shahrida vafot etgan.

2023-09-25 20:55:29